

AYOLLAR TUXUMDON O'SMALARINING ULTRATOVUSH YORDAMIDA TEKSHIRISH (XORAZM MISOLIDA)

F.R. Matyazova

Z.Z. Qutlimuradova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15480830>

Mavzuning dolzarbligi. Ultrasonografiya (UZI) – bu tuxumdon shishiga shubha qilingan bemorlarga hamda odatiy ko'rikda o'tkaziladigan birinchi vizualizatsiya tadqiqotidir. Bu oson mavjud bo'lgan va ishonchli usul bo'lib, yuqori aniqlikka ega va yangi o'smaning joylashuvi, o'lchamlari va tabiatini aniqlashga imkon beradi. Biroq, ultratovush belgilarining aniqligiga qaramay, tuxumdonning yaxshi va yomon xosilali o'smalarini farqlash uchun yagona integratsiyalashgan ultratovush kriteriyasini topish 115 amalda muhimdir. Yuqorida aytib o'tilganlarga aloqador ravishda, o'z vaqtida tashxis qo'yish, tuxumdon saratonini skriningini tashkil qilish va diqqat bilan kuzatish onkologiyaning muhim vazifalaridan biridir. Yarim-sonli tahlil qilish asosida, Sassone shkala bo'yicha vizualizatsiya qilingan belgilarni balli baholash yordamida o'tkazilgan seroshkala ehografiyasining ma'lumotlari, tuxumdonning yaxshi va yomon xosilali o'smalarini farqlashda usulning yuqori prognoz qobiliyatini ko'rsatdi. ROC tahliliga ko'ra, umumiy ballar yig'indisi sonografik belgilari qiymatlarining egri chizig'i ostidagi maydon (AUROC) 0.905 ni tashkil etdi, sezgirlik 92% va maxsuslik 84% bo'ldi. Farqlashning chegara qiymati aniqlangan bo'lib, unga ko'ra baholangan ekho-belgilarning ballari yig'indisi 8 dan ortiq bo'lsa, yuqori ehtimol bilan o'smanning yomon tabiati ko'rsatilgan. Sassone shkalasining tuxumdon saratoni gistologik G darajasini prognoz qilishdagi samarasi past bo'lgan, ammo logistik regressiya tahlili o'smalar farqlanish darajasini prognoz qilishda echo-belgilar kombinatsiyasi orqali istiqbolli ekanligini ko'rsatdi (AUROC – 0.928).

Tadqiqot maqsadi: Tuxumdon o'smalarini differensial diagnostikasining samaradorligini kompleks ultratovush tekshiruvini qo'llash orqali oshirish.

Materiallar va usullar: Ushbu ishning asosini 50 nafar tuxumdon yangi o'sma bilan gistologik tasdiqlangan ayollarning kompleks tekshiruv natijalari tashkil etdi, ularning 19 nafari yaxshi o'smalar bilan, 31 nafari esa yomon o'smalar bilan. Klinik-laboratoriya va instrumental tekshiruvlar Toshiba Aplio 500 PRO (Yaponiya) ultratovush apparatida tuxumdonlarning kompleks ehografiyasini o'z ichiga oldi, shuningdek, Respublika Mutaxassislashtirilgan Onkologik Ilmiy Markaz Xorazm filialida bajarilgan gistologik va immunologik tahlillarni o'z ichiga oldi. Natijalar: Gistologik tekshiruvda, yomon o'sma bilan bemorlar orasida quyidagilar aniqlangan: 20 nafar (64,5%) adenokarsinoma, 5 nafar (16,1%) papilliar tsistadenokarsinoma, 6 nafar (19,3%) disgerminoma. Yaxshi o'sma bilan bemorlar orasida esa: 3 nafar (15,7%) papilliar sistadenoma, 5 nafar (26,3%) seroz sistadenoma, 1 nafar (0,052%) mukinoz sistadenoma, 3 nafar (15,7%) dermoid kista, 7 nafar (36,8%) endometrioid kista aniqlangan. Yarim-sonli tahlil asosida, Sassone shkala bo'yicha vizualizatsiya qilingan belgilarni balli baholash yordamida o'tkazilgan seroshkala exografiyasining ma'lumotlari tuxumdonning yaxshi va yomon xosilali o'smalarini farqlashda usulning yuqori prognoz qobiliyatini ko'rsatdi. ROC tahliliga ko'ra, umumiy ballar yig'indisi sonografik belgilari qiymatlarining egri chizig'i ostidagi maydon (AUROC) 0.905 ni tashkil etdi, sezgirlik 92% va maxsuslik 84% bo'ldi. Farqlashning chegara qiymati aniqlangan bo'lib, unga ko'ra baholangan exo-belgilarning ballari yig'indisi 8 dan ortiq bo'lsa, yuqori ehtimol bilan o'smanning yomon

tabiati ko'rsatilgan. Sassone shkalasining tuxumdon saratoni gistologik G darajasini prognoz qilishdagi samarasi past bo'lgan, ammo logistik regressiya tahlili o'smalar farqlanish darajasini prognoz qilishda exo-belgilar kombinatsiyasi orqali istiqbolli ekanligini ko'rsatdi (AUROC – 0.928).

Xulosa. Yuqorida keltirilganlarga asoslanib, aytish mumkinki, Sassone balli shkalasi bo'yicha tuxumdon yangi o'smalari kompleks exografiyasi tuxumdonning yomon o'sma va yaxshi o'sma farqlashda yuqori axborot beruvchi usuldir. Ushbu hisoblash usulining keyingi tajribasi va takomillashuvi tuxumdon saratoni gistologik G darajasini prognoz qilishda ultratovush diagnostikasining afzalliklarini maksimal darajaga chiqarishi kerak.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сухарева И. А. и др. Рак яичников: современный взгляд на проблему, эпидемиологическая картина, факторы риска и меры профилактики //Modern Science. – 2021. – №. 10-1. – С. 242-248.
2. Тимурзиева А. Б. Использование раман-флуоресцентных технологий в ранней диагностике воспалительных и опухолевых заболеваний как часть стратегического направления формирования общественного здоровья и инструмент для повышения качества оказания медицинской помощи: обзор литературы //Лазерная медицина. – 2022. – Т. 25. – №. 4. – С. 42-50.
3. Турдыбекова Я.Г. Фолликулогенез и фолликулярный запас яичника в норме и патологии: Аспекты (этапы) клинко-морфологического изучения (литера-турный обзор) // Вестник КазНМУ. – 2019. – №1. – С. 41-45.
4. Фатеева, Александра Сергеевна Клинические и морфологические аспекты изменений яичников после гистерэктомии (клинко-экспериментальное исследование)Автореф. Дис... канд. Мед. Наук.- Томск, 2017.- 27 с.
5. Хакимова Г. А., Мирайпова М. Р. Современные представления об частоте встречаемости опухолей яичников //Ученый XXI века. – 2022. – №. 8 (89). – С. 7-10.
6. Халикова Л. В., Шевлюк Н. Н., Шарафутдинова Л. А. Морфологическая характеристика лимфоидной ткани большого сальника при опухолевом поражении яичников //Материалы II Международной научно-практической конференции «Бородинские чтения», посвященной 85-летию Новосибирского государственного медицинского университета. – 2020. – С. 249-255.
7. Халимова Ю. С., Хафизова М. Н. Особенности созревание и функционирование яичников //Modern education and development. – 2024. – Т. 10. – №. 1. – С. 337-347.
8. Matyazova F.R., Inoyatova N.N.Sut bezi saratonini davolash usullarining tahlili 2023
9. Матязова Ф.Р.,Хаджаниёзов А.А.,Султанов Б.Б. Оценка Комбинированного И Комплексного Лечения Рака Молочной Железы.-2024
10. Хожаназарова С. Ж. Влияние пестицидов на состояния гемоциркуляторного русла и тканевых структур яичников у крыс //International journal of recently scientific researcher's theory. – 2024. – Т. 2. – №. 6. – С. 123-127.

11. Хожаназарова С. Ж. и др. Морфологическое состояние микроциркулятор-ного русла и тканевых структур матки и яичника при хронической интоксикации пестицидом. – 2023.
12. Холова С.Х., Хушвахтова Э.Х., Ниязова С.Дж. Морфологическая и иммуногистохимическая картина доброкачественных опухолей яичников у женщин репродуктивного возраста // Здоровоохранение Таджикистана. – 2019. – №1. – С. 62-68.
13. Цвиркун Д. В. и др. Методы исследования окислительного стресса и митохондриальной дисфункции при акушерско-гинекологической патологии //Medica mente. Лечим с умом. – 2017. – Т. 3. – №. 2. – С. 12-18.